



UDK: 81'373.7:070

*Nilufar MATXOLIKOVA,*  
*O'zbekiston Milliy universiteti tayanch doktoranti*  
*E-Mail: nilufar260783@gmail.com*

*Toshkent davlat agrar universiteti dotsenti G.Tilavova taqrizi asosida*

### OAV MATNLARIDA FRAZEOLOGIZMLARNING TEMATIK TAVSIFI

Annotatsiya

Mazkur maqolada ommaviy axborot vositalari matnlarida uchraydigan frazeologik birliklarning tematik jihatdan tasnifi amalga oshiriladi. Tadqiqot doirasida siyosat, madaniyat va sport diskurslariga oid iboralar tahlil qilinib, ularning semantik-pragmatik yuklamasi ochib beriladi. Olingan natijalar frazeologizmlarning OAV tilida manipulyativ va ekspressiv vosita sifatidagi rolini ko'rsatadi.

**Kalit so'zlar:** Frazeologizm, OAV diskursi, siyosiy kommunikatsiya, sport reportaji, madaniy semantika, pragmatika, lingvistik tahlil, ekspressivlik, media tili, tarjima.

### ТЕМАТИЧЕСКАЯ ХАРАКТЕРИСТИКА ФРАЗЕОЛОГИЗМОВ В ТЕКСТАХ СМИ

Аннотация

В статье проводится тематическая классификация фразеологических единиц в медиатекстах. Особое внимание уделяется политическому, культурному и спортивному дискурсам, а также их семантико-прагматическим особенностям. Результаты исследования показывают, что фразеологизмы выполняют важную экспрессивную и манипулятивную функцию в языке СМИ.

**Ключевые слова:** Фразеологизмы, язык СМИ, политический дискурс, культурный контекст, спортивный репортаж, семантика, прагматика, экспрессивность, медиакommunikация, перевод.

### THEMATIC CHARACTERIZATION OF PHRASEOLOGICAL UNITS IN MASS MEDIA TEXTS

Annotation

This paper presents a thematic classification of phraseological units in media discourse. It focuses on political, cultural, and sports-related expressions, analyzing their semantic and pragmatic functions. The study demonstrates that phraseological units serve as powerful expressive and persuasive tools in mass media language.

**Key words:** Phraseological units, media discourse, political communication, sports reporting, cultural semantics, pragmatics, expressiveness, media language, translation, linguistic analysis.

**Kirish.** Zamonaviy OAV matnlari nafaqat axborot uzatadi, balki auditoriyaga ma'lum bir nuqtayi nazarni singdiradi. Bu jarayonda frazeologik birliklar tilning ta'sirchan qatlamini tashkil etib, kommunikativ samaradorlikni oshiradi. Ayniqsa, tematik jihatdan farqlanuvchi diskurslarda frazeologizmlar turli funksional yuklama bilan namoyon bo'ladi.

Zamonaviy axborot makonida ommaviy axborot vositalari (OAV) nafaqat informatsiya yetkazish, balki jamoatchilik fikrini shakllantirishning muhim instrumenti sifatida faoliyat yuritmoqda. Ushbu jarayonda til vositalari, xususan frazeologik birliklar, kommunikativ ta'sirchanlikni oshirishda alohida ahamiyat kasb etadi. Frazeologizmlar orqali murakkab ijtimoiy-siyosiy hodisalar soddalashtirilgan, obrazli va emotsional jihatdan boy shaklda taqdim etiladi. Bugungi kunda OAV matnlarida frazeologik birliklarning qo'llanishi sezilarli darajada kengayib borayotgan bo'lsa-da, ularning tematik jihatdan tizimli tahlili yetarli darajada o'rganilmagan. Ayniqsa, siyosat, madaniyat va sport kabi turli diskurslarda frazeologizmlarning funksional xususiyatlarini qiyosiy asosda o'rganish zarurati mavjud. Chunki har bir tematik maydon o'ziga xos kommunikativ strategiyalar va til vositalarini talab etadi.

Shu nuqtai nazardan, mazkur maqolada OAV matnlarida qo'llaniladigan frazeologik birliklarning tematik tavsifini aniqlash, ularning semantik va pragmatik funksiyalarini ochib berish dolzarb ilmiy vazifa hisoblanadi.

Tadqiqot natijalari media lingvistikasi, frazeologiya va tarjimashunoslik sohasini boyitishga xizmat qiladi.

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.** Frazeologiya masalalari tilshunoslikda keng o'rganilgan yo'nalishlardan biri hisoblanadi. Xususan, Harald Burger va Wolfgang Fleischer tadqiqotlarida frazeologik birliklarning struktur-semantik xususiyatlari hamda ularning nutqdagi funksiyalari yoritilgan [1]. Elke Donalies esa frazeologizmlarning klassifikatsiyasi va kommunikativ vazifalarini tizimlashtirgan [3].

O'zbek tilshunosligida Shavkat Rahmatullayev va Abdug'ani Mamatov ishlari frazeologik birliklarning milliy til tizimidagi o'rni va funksional xususiyatlarini ochib beradi [4]. Shu bilan birga, frazeologizmlarning madaniy aspektlari Zofia Berdychowska tomonidan til va madaniyat o'zaro aloqasi doirasida tadqiq etilgan [6].

Biroq mavjud tadqiqotlarda frazeologizmlarning aynan OAV diskursida, xususan siyosat, madaniyat va sport kesimida tematik tahlili yetarli darajada yoritilmagan. Mazkur maqola ana shu bo'shliqni to'ldirishga qaratilgan.

Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology). Media lingvistikasida frazeologizmlarning roli keng o'rganilgan bo'lsa-da, ularni tematik kesimda kompleks tahlil qilish hali ham dolzarb masala bo'lib qolmoqda. So'nggi tadqiqotlarda frazeologizmlarning diskursiv funksiyasi, xususan siyosiy manipulyatsiya va emotsional ta'sir vositasi sifatidagi roli alohida qayd etilgan [1].

Biroq, siyosat, madaniyat va sport kabi turli kommunikativ maydonlarda ularning qiyosiy tavsifi yetarli darajada tizimlashtirilmagan.

Tadqiqotda quyidagi metodlar qo'llanildi:

kontekstual tahlil

diskursiv tahlil

qiyosiy metod

Material sifatida o'zbek OAV (masalan, Qalampir.uz, Xalq so'zi, Daryo.uz) va nemis OAV matnlaridan (Frankfurter Allgemeine. Süddeutsche Zeitung) fragmentlar tanlab olindi. Frazeologizmlar uchta tematik blok asosida tizimlashtirildi:

Siyosiy diskurs

Madaniy diskurs

Sport diskursi

**Tahlil va natijalar.** Mazkur bosqichda tadqiqot davomida to'plangan empirik materiallar asosida frazeologik birliklarning tematik va funksional xususiyatlari tahlil qilinadi. OAV matnlaridan ajratib olingan misollar siyosiy, madaniy va sport diskurslari kesimida ko'rib chiqilib, ularning semantik mazmuni hamda pragmatik yuklamasi aniqlanadi. Tahlil jarayonida frazeologizmlarning kommunikativ ta'sir kuchi va diskursiv vazifalari alohida e'tiborga olinadi.

1. Siyosiy diskursdagi frazeologizmlar. Nemis va o'zbek tillaridagi real OAV matnlarida siyosiy jarayonlarni ifodalashda bir qator barqaror frazeologik birliklar faol qo'llanadi. Jumladan, siyosiy sahnaga chiqmoq (auf die politische Bühne treten), keskin burilish yasamoq (eine Wendung herbeiführen), boshi berk ko'cha (Sackgasse) kabi iboralar siyosiy diskursning muhim komponenti hisoblanadi.

Mazkur frazeologizmlar siyosiy voqelikni oddiy axborot darajasidan chiqarib, uni obrazli va ta'sirchan shaklda yetkazishga xizmat qiladi. Xususan, boshi berk ko'cha iborasi muzokaralarning natijasiz yakunlanishini metaforik tarzda ifodalasa, siyosiy sahnaga chiqmoq yangi siyosiy kuchlarning paydo bo'lishini dramatik konnotatsiya bilan tasvirlaydi.

Nach den Wahlen sind mehrere neue Parteien auf die politische Bühne getreten. [Frankfurter Allgemeine. 2025.06.05] Saylovlardan so'ng yangi siyosiy kuchlar siyosiy sahnaga chiqdi.

Shunday qilib, bu birliklar siyosiy diskursda dramatisatsiya va interpretatsion yo'naltirish funksiyasini bajarib, auditoriyani muayyan talqinga yo'naltiradi hamda murakkab jarayonlarni soddalashtiradi.

2. Madaniy diskursdagi frazeologizmlar Madaniyatga oid OAV matnlarida frazeologik birliklar asosan milliy qadriyatlarni ifodalash va estetik ta'sirni kuchaytirish vositasi sifatida namoyon bo'ladi. Bu diskursda ko'ngil ko'zgusi (Spiegel der Seele), ildiz otmoq (Wurzeln schlagen) kabi iboralar keng qo'llanadi.

Diese Traditionen haben tief in der Gesellschaft Wurzeln geschlagen. [Süddeutsche Zeitung. 2025.09.01.] Bu an'analar jamiyatda chuqur ildiz otib ketgan,

Ushbu frazeologizmlar milliy madaniyat, an'ana va qadriyatlarni obrazli tarzda ifodalab, matnga badiiylik

bag'ishlaydi. Masalan, bebaho xazina iborasi madaniy merosning qadr-qimmatini kuchaytirib ko'rsatadi, ko'ngil ko'zgusi esa san'at va madaniyatni inson ruhiyati bilan bog'laydi.

Natijada, bu birliklar madaniy diskursda identifikatsion va estetik funksiyani bajarib, milliy o'zlikni mustahkamlashga xizmat qiladi.

3. Sport diskursidagi frazeologizmlar. Sport OAV matnlari frazeologik birliklarga nihoyatda boy bo'lib, ular o'yin jarayonini jonli, dinamik va emotsional tarzda tasvirlashga xizmat qiladi. Nemis tilidagi materiallarda eine Achterbahnfahrt sein, ein glückliches Händchen haben, eine Augenweide sein kabi iboralar keng uchraydi.

Mazkur frazeologizmlar o'yin dinamikasi va natijasini obrazli tarzda ifodalaydi. Jumladan, eine Achterbahnfahrt sein o'yinning keskin va kutilmagan burilishlarga boyligini anglatadi, ein glückliches Händchen haben murabbiyning muvaffaqiyatli qarorlarini ifodalaydi, eine Augenweide sein esa o'yinning tomoshabopligini ta'kidlaydi. O'zbek sport diskursida esa ustunlikni qo'lga olmoq (die Oberhand gewinnen), raqibini yer tishlatmoq (den Konkurrenten zu Boden zwingen), dadil qadam tashlamoq (einen entschlossenen Schritt machen) kabi frazeologizmlar keng qo'llanadi.

Das Spiel zwischen den beiden Mannschaften war für die Zuschauer eine echte Augenweide. Uchrashuv tomoshabinlar uchun haqiqiy ko'z quv naydigan o'yin bo'ldi.

Ushbu birliklar sport diskursida ekspressivlik va dramatisatsion kuchaytirish, o'yin jarayonini jonlantirish hamda auditoriyaning emotsional jalb etilishini ta'minlash funksiyalarini bajaradi.

**Xulosa.** Tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki, frazeologik birliklar OAV diskursida nafaqat stilistik bezak, balki kuchli kommunikativ va pragmatik vosita sifatida namoyon bo'ladi. Ular orqali axborot yetkazilishi bilan birga, muayyan talqin, baholash va auditoriyaga ta'sir ko'rsatish amalga oshiriladi.

Tadqiqot davomida aniqlanishicha, frazeologizmlar turli tematik sohalarda o'ziga xos funksional yuklama bilan qo'llanadi. Siyosiy diskursda ular manipulyativ va yo'naltiruvchi vosita bo'lib, murakkab jarayonlarni soddalashtirish va dramatisatsiya qilishga xizmat qiladi. Madaniy matnlarda esa ular milliy identitet va qadriyatlarni ifodalab, estetik ta'sirni kuchaytiradi. Sport diskursida frazeologizmlar voqelikni dinamik va emotsional tarzda tasvirlab, matnning ekspressivligini oshiradi.

Shuningdek, frazeologizmlarning tarjimada adekvat ifodalanishi muhim masala bo'lib, ular ko'pincha to'g'ridan-to'g'ri emas, balki kontekstual moslashtirish orqali tarjima qilinadi. Bu jarayonda ekvivalentlik, adaptatsiya va kompensatsiya strategiyalaridan foydalanish zarur.

Umuman olganda, frazeologik birliklar OAV tilining obrazlilik va ta'sirchanligini oshiruvchi muhim vosita bo'lib, ularni funksional jihatdan o'rganish media lingvistik va tarjimashunoslik uchun muhim ilmiy ahamiyat kasb etadi.

#### ADABIYOTLAR

1. Burger H. Phraseologie: Eine Einführung am Beispiel des Deutschen. – Berlin: Schmidt, 2010.
2. Fleischer W. Phraseologie der deutschen Gegenwartssprache. – Tübingen: Niemeyer, 2015.
3. Donalies E. Basiswissen Deutsche Phraseologie. – Tübingen: Francke, 2009.
4. Rahmatullayev Sh. O'zbek tilining frazeologik lug'ati. – Toshkent, 1992.
5. Mamatov A.E. Hozirgi o'zbek tilida frazeologiya. – Toshkent, 2010.
6. Berdychowska Z. Phraseologie als Schnittstelle von Sprache und Kultur. – Kraków, 2005.